

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI DIQQATINI JALB ETISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qo'qon universiteti
Ta'lim fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Maxkamova Masturaxon Baxromjon qizi
[Tel:+998998352390](tel:+998998352390)*

*Qo'qon Universitet
Psixologiya yo'nalishi talabasi
Ahmedova Sarvinoz Nosirjon qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning diqqatini jalb etishning psixologik xususiyatlarini hamda o'quv faoliyatida bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi turli metodlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab, ta'lim, tarbiya, diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, suhbat, anketa, test, so'rovnoma, metod, o'qish istagi, amaliy faoliyat, o'yin elementlari, individual yondoshuv, qiziqarli o'quv dasturlari, o'quv jarayoni, ijobiy munosabat

Аннотация. В статье рассматриваются психологические особенности привлечения внимания учащихся младших классов и различные методы, развивающие познавательные процессы в учебной деятельности.

Ключевые слова: Начальная школа, образование, воспитание, внимание, произвольное внимание, непроизвольное внимание, беседа, анкетирование, тест, опросник, метод, желание учиться, практическая деятельность, игровые элементы, индивидуальный подход, интересные образовательные программы, образовательный процесс, позитивный настрой

Abstract. This article discusses the psychological characteristics of attracting the attention of primary school students and various methods of developing cognitive processes in educational activities.

Keywords: Primary school, education, upbringing, attention, voluntary attention, involuntary attention, conversation, questionnaire, test, questionnaire, method, desire to study, practical activities, game elements, individual approach, interesting educational programs, educational process, positive attitude

Sharqning boshqa bir yirik olimi Burhoniddin Zarnujiy o'zining "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" kitobida: "O'qib o'rganish uchun eng yaxshi vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtni samarali tashkil etishga odatlansin, bordi-yu, unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul

(3rd international scientific and practical conference)

bo'lsin", - deya ta'lim beradi. "Ta'limul – mutaallim" nomli kitobida bo'lsa ta'limning uzviylik prinsipini e'tirof etadi. XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida bilim olishga da'vat etgan. Asardagi: "Ey o'g'lim, mendan o'git, nasihat ol, odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat" yoki "Ilm, hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o'rganmasdan, o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi imtihon vaqtida uyaladi, achinadi" kabi fikrlari buning yorqin misolidir. O'rta Osiyoning yana bir buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib ham o'z ijodida bilimni yuksak baholaydi. Alloma bilimni boylik, kiyim, yemish kabi narsa-hodisalarga qiyoslaydi. Bilim va bilimdonlikni his eta olmoq, uni tushunmoq darkorligi, bilimdon bo'lishning tarbiya bilan chambarchas bog'liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, bilim olishga ishtiyoqi ortishi haqida yozadi. O'quvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlariga oid mulohazalar qomusiy olim Umar Xayyom asarlarida chuqur yoritib berilgan. Umar Xayyomning fikricha, o'quvchilar o'qituvchidan olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, hayotda bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganish va kuzatish, amaliyot davomida bilim, malaka hamda ko'nikmalarini har xil usullarda ko'p martalab takrorlab borish jarayonida egallaydilar, ya'ni olim ta'limdagi predmet bilan hayot uzviy aloqadorligi prinsipini ilgari suradi. Uning fikricha, bilim olishni, ta'limni amaliyot bilan uzviy ravishda bog'lagan holda o'quvchilarda mustaqil tafakkurni shakllantirib borish zarur. Buning uchun u "Sen osongina o'ylayapsan", "Ko'p o'ylab, maqsadga erishish mumkin", "Bir oz o'ylagandan keyin, tushunib olasan" kabi so'zlarni ishlatib, o'quvchilarni mulohaza qilishga undab, sekin-astalik bilan o'qishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirishga harakat qiladi.[1] Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tadbiiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak " deb o'qituvchi murabbiylarga katta talab va shu bilan birga keng imkoniyatlar yaratib berdilar. Shu sababli yangi O'zbekistonda o'qituvchidan katta mas'uliyat, yuksak pedagogik-psixologik mahorat talab qilinadi. Bola yetti yoshga to'lganda jismoniy jihatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti-harakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, u o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bemalol bajaradi, jamoada yashashga ko'nika boshlaydi. Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi ma'lum darajada o'sgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladi. Kichik maktab yoshida o'quvchilarga qo'yiladigan asosiy talab bu-diqqat. Diqqat juda oddiy lekin shu bilan

(3rd international scientific and practical conference)

birga muhim psixik jarayonlardan biri sanaladi. Aqliy faoliyatning barcha turlarida diqqat ishtirok etadi. Bizning ish harakatlarimiz ham diqqat ishtiroki bilan sodir bo'ladi. Diqqat o'qish jarayonining zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Idrokning to'laligi, to'g'riligi, tezligi, esda qoldirishning tez va aniqligi bolalar diqqatiga bog'liqdir.[2] Diqqat asosiy nerv jarayonlari bo'lgan qo'zg'alish va tormozlanishning yoki xususiyatlari to'laligicha namoyon bo'ladigan psixik aktivligining muhim tomonidir. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kichik yoshdagi o'quvchilarning bosh miya yarim sharlari po'stida juda tez paydo bo'ladi. Shu sababli agar qo'zg'aluvchilar bolaning miya qobig'ida qo'zg'alishi vujudga keltirsa, ikkinchi qo'zg'ovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo'zg'alish o'chog'ini tormozlab qo'yishi mumkin. Bu kichik yoshdagi bolaning diqqatini juda tez va oson chalg'itish mumkinligini ko'rsatadi. O'quvchilar diqqatining bu xususiyati ularning o'qish materiallarini o'zlashtirishlariga halaqit beradi. Shu sababli o'qituvchi bola diqqatini bunday xususiyatlarini doimo esda tutgan holda, darsni bir qismini ikkinchi qismi bilan bog'lab, ustalik bilan o'tkazishi va bu momentlarning bir-birini tormozlab qo'ymasligi uchun darsning har bir bosqichini yaxshilab o'ylab ko'rish kerak O'qish faoliyati tomonidan qo'yilgan jiddiy talablarning bir qismi tabiiy o'quvchilarning diqqatini ishga soladi. O'qish jarayonining ta'siri ostida kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining barcha xususiyati va sinflari intensiv ravishda o'sib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatidan ixtiyoriy diqqatga ko'chish osonlashadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Lekin maktabda o'qish birinchi yiliyoq ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diqqatning bu turi B.T.Ananevning yozishicha, "...katta odamlar bilan bolalarning birgalikda faoliyati va tarbiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o'sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va tafakkurning tarbiyalanishiga bog'liqdir". Kichik yoshdagi o'quvchilarning ixtiyoriy diqqati to'g'risidagi masala bilan K.D.Ushenskiy ko'p shug'ullangan. U ba'zi pedagoglarning kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqatning afzalligiga tayangan holda maktabdagi barcha o'qish jarayonining faqat qiziqarli va maroqli qilib tashkil etish kerak degan fikrga qo'shilmagan.[3] 6-11 Yoshli o'quvchilarning bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, Shuningdek, bola o'zini atrofdagilarning talabini bajarishga yoki shaxsiy harakat qilishga intilgandagina yuzaga kelishi mumkin. Kichik maktab Yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida tafakkurning ham rivojlanishini ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrofola mni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, u o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quYosh kechasi qaerda

(3rd international scientific and practical conference)

bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo'lgan masofani bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», «Qanday kilib?», «Nima orqali?» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu Yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsalar haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. O'quvchilar uchun mavzu kengligini oshirish, yodda chuqur eslab qolish psixologik jihatdan diqqat bilan bog'lanadi. Belgilangan vaqt davomida o'quvchi butun diqqatini mavzuga dars jarayoniga qaratishi, birinchi o'rinda, o'qituvchi mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Psixologik jihatdan diqqat tushunchasi juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'quvchilar bilimi kengayishi uchun muhim tushunchasidir. Diqqatning barqarorlik, ko'chuvchanlik, bo'linuvchilik kabi xususiyatlari, ko'lami kabi omillari uning doirasini kengaytiradi. Diqqatning barqarorligi uning yagona, umumiy (masalan, kitob o'qish, masala yechish kabi) ishga xizmat qiluvchi narsa yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo'la olishidan iborat. Ko'chuvchan diqqat bir faoliyatdan yoki narsadan boshqa faoliyat yoki narsaga tez jalb bo'ladi. Bu xususiyat diqqatning avvalgi narsaga qay darajada qaratilganligiga va yangi faoliyatning xususiyatiga bog'liq. O'quvchilar dars mavzusi yuzasidan butun e'tiborlarini mavzuga qaratishi uchun bugun fan tizimlarida interfaol metodlar shakllanmoqda. Bu metodlar dars va bilim nazariyasining amaliy jihatlarini rivojlantiradi. Jalb qila oladigan metodlar sirasiga bir qancha metodlarni kiritishimiz mumkin. "Qarorlar shajarasi" metodi. "Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan asoslari haqidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirib, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Bu metod yuzasidan diqqat ko'lami uning eng qisqa vaqt ichida (go'yo birdaniga) o'z doirasiga sig'dira olishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Kuzatishlar mobaynida o'quvchilarning dars davomidagi aqliy faolligini ta'minlash va diqqatini mavzu materiallariga qay tarzda jalb qilish tadqiq qilindi. Olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar oqibatida o'quvchilar diqqatini o'qish materiallariga qaratishning quyidagi usullari aniqlandi:

1. Darsni o'quvchi qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish.
2. Darsni qiziqarli o'yinlar bilan bog'lash.
3. Rang-baranglikka intilish.
4. Rag'batlantirish. Bu kabi usullar dars jarayonini, o'quvchilar diqqatini murakkabroq qaratishga yordam beradi. Bilamizki, o'quvchi o'zi uchun qiziq bo'lmagan ma'lumotlarga diqqat qaratmaydi. O'qituvchi mavzuni yuksak mahorat bilan, ustalik bilan o'quvchilarga tushuntirsa, o'quvchining butun diqqatini jalb qila oladi. Bu ayni

haqiqat. Shu sababli o`qituvchi o`quvchilar qiziqishlaridan xabardor bo`lishi lozim. Bu bilan o`quvchining diqqatini jalb qilgan holda mavzu materiallari o`rgatiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o`quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo`llaniladigan usuldir. O`qish darslarida reproduktiv metod keng qo`llaniladi. Masalan, o`qituvchi dastlabki darslarda o`zi asar matnini qismlarga bo`ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo`lgan muhim fikriga o`quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko`rsatadi, o`quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma`noni ochib, o`quvchilarga ko`maklashadi. Shundan so`ng o`quvchilar o`qituvchining ko`rsatmalari yordamida yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarni o`zlari mustaqil ravishda bajaradilar. Yuqorida ta`kidlangan metodlardan tashqari, o`quvchilar diqqatini kengroq jalb qilish uchun zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan “Aqliy hujum”, “Tarmoqlash”, “Guruhlar bilan ishlash”, “Blis texnologiyasi” kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qollash o`qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak. Yozuv taxtasiga katta qilib aylana chizamiz va buni qora oyna deb tasavvur qilamiz. Bu oynaning narigi tomonida barcha bilimlar jamlangan. Oynani sindirish va bilimlarni chiqarib olish zarur va buni bajarish uchun o`quvchilardan yordam so`raladi. Har bir o`quvchi bitta ma`lumot aytadi va oynaga “X” belgisini chizadi. Aylana “X”larga to`lgandan keyin oyna parchalanadi va bilimlar chiqarib olinadi. Bu jarayonda nafaqat o`quvchining diqqati darsga jamlanadi, balki bilimlari mustahkamlanadi. Yana diqqat jalb qilish imkoniga ega metodlardan bir qanchasini aytishimiz mumkin.

1. Dars jarayonida rangli materiallardan foydalanish.
2. Darsda bir xillikdan uzoqlashib, turfa xil metodlardan foydalanish, darsni turli xil usullarda o`quvchilarga tushuntirish.

Rag`batlantirish metodi orqali o`qituvchi dars davomida juda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. O`quvchilarning diqqatini mashq qildirishga doir mashqlar:

1. Gugurt qutichasi biografiyasini esga tushirish.
2. 5 sekundlik qisqa e`tibor bilan stol ustida yotgan barcha buyumlarni ichki nazar bilan ‘`suratga`` olishni buyurish.
3. Buyumlarni ‘`suratga oling``. Ko`zni yumishga komanda beriladi. Pedagog buyumlarni aralashtirib yuboradi va sinaluvchidan buyumlar oldin qanday yotgan bo`lsa, ularni shunday qo`yib chiqishini so`raydi.

Maktabda o`quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o`zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga takqoslashni, analiz va sintez qilishni o`rganib oladi. Bolaning maktabdagi o`qishi jarayonida unda abstraksiyalash qobiliyati o`sa boshlaydi. Boshqa fanlarni o`qish jarayonida bu qobiliyat yanada o`sadi. Bola analiz

qilish, abstraksiyalash va taqqoslashni, mashq qilish yo‘li bilan narsalarning muhim belgilari bilan ahamiyatsiz belgilarini bir-biridan farq qilishni, predmet, voqea-hodisalarning muhim belgilariga qarab turib xulosalar chiqarishni o‘rganadi. Kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha Yoshdagi bolalar va o‘smirlardan farq qiladi. Ta‘lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kichik maktab Yoshdagi o‘quvchilarni barkamollikka erishtirishning garovidir. 6-11 Yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin bu Yosh asosan ko‘rganlariga tayanib, ta‘lim olishga sezitiv bo‘lgan davr hisoblanadi, Boshlang‘ich maktabning o‘zidayok bolalar birinchi sinfdan boshlab ko‘p miqdorda xilma-xil tushunchalarni — grammatikaga, arifmetikaga, tabiatga doir, Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni o‘zlashtirib oladilar. O‘quvchilar o‘zlashtirib oladigan tushunchalar doirasi, asosan, har qaysi sinf uchun turli fanlar yuzasidan tuzilgan o‘quv dasturi bilan belgilanadi. Muayyan ilmiy mazmunga ega bo‘lgan tushunchalar o‘quvchilarga mantiqiy ifodalangan shaklda bayon qilib beriladi. O‘quvchilar o‘zlarining ham tushunchalarini mazmunini ta‘riflab, ularning jins va turlariga doir belgilarini ko‘rsatib, aytib berishni o‘rganadilar. O‘quvchilar tushuncha va qoidalarni ta‘riflab berolmay qolganlarida yoki ta‘riflash mumkin bo‘lmagan paytlarda tasvirlab, taqqoslab, xarakterlab, misollar bilan ko‘rsatib beradilar. N.S.Leytes mulohazalariga ko‘ra, inson Yoshi ulg‘aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko‘tariladi, uquvchanlik xususiyati esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab Yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o‘smir va o‘spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o‘smir va o‘spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan yuqoridir. Bu holat kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilarning yetakchi faoliyati – o‘qish bo‘lishi bilan, lekin bilish jarayonlari hali hamma tomonlama rivojlanib bo‘lmaganligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Kichik maktab davridagi bolalarning aqliy rivojlanishi ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Individ ijtimoiy munosabatlar ta‘sirida o‘zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o‘qishga o‘tishi uning barcha bilish jarayonlarini rivojlanishiga va o‘z-o‘zidan atrofhayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini, munosabatlarini o‘zgarishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning diqqatini torta olmagan o‘qituvchi darsning sifatini maksimal darajaga yetqaza olmaydi. Diqqat nafaqat psixik jarayon, balkim, o‘qish sifatini oshiradigan, talim olish va tarbiyalanish jarayonining mustahkamligini ta‘minlab beradigan muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.А.Дўстмухамедова, З.Т.Нишанова, С.Х.Жалилова, Ш.К.Каримова, Ш.Т.Алимбаева ёш даврлари ва педагогик психология, Тошкент- 2013. 19-б

2. Nishanova Z.T., Kamilova N.G',., Abdullayeva D.U.,Xolnazarova M.X. RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI Toshkent-2019 76-b
3. M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyev YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA TOSHKENT-2014 58-b
4. Xaydarov.I.F, Xalilova.I.N: Umumiy psixologiya darsligidan. 2009
5. M.X.Xolnazarov, M.Q.Muxliboyev “Yosh va pedagogik psixologiya” 2014
6. Abdullayeva Q. va boshqalar “O’qish ktobim” 2- sinf,T. 2006 yil
7. Abdullayeva Q., va boshqalar “Savod o’rgatish darslari” T,
8. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
9. Nishanova Z.T.,Kamilova N.G',.,Abdullayeva D.U.,Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi Toshkent-2019.
10. Bo’ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o’zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
11. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O’qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.
12. Ashurova, G. (2024). O’SMIRLIK YOSHIGACHA BO’LGAN BOLANING PSIXIK XUSUSIYATLARI RIVOJLANISH JARAYONI O’RGANISHNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 58-59.
13. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
14. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O ‘RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.
15. Maxkamova, M., Khalmamatova, L., Aripova, N., & Turdibekova, R. (2023). PROBLEMS OF TEACHING UZBEK LANGUAGE IN RUSSIAN GROUPS OF NONPHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Science and innovation*, 2(B1), 379-381.
16. Siddikov, B. S., & Mahkamova, M. B. (2022). Ways to develop the professional qualities of future teachers. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 966-972.
17. Sokhobjonovich, O. S. (2025). Analysis paths of the statistical part of research work. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 5(03), 1-4.
18. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 260-263.